

MUSIQIY TAFAKKUR TUSHUNCHASI VA TAKOMIL BOSQICHLARI

Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi

Musiqi ta'limi va san'at mustaxassisligi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada musiqiy tafakkur tushunchasi, tafakkur tushunchasi o'z aslida nimaga xizmat qiladi va takomil bosqichlari tushuntirilib berilgan.

Kalit so'zlar: Musiqiy tafakkur, takomil bosqichlari, psixo-emotsional, barkamol, nazariy g'oyalar, madaniyat.

ANNOTATION

The article explains the concept of musical thinking, what the concept of thinking actually serves, and the stages of improvement.

Key words: Musical thinking, development stages, psycho-emotional, mature, theoretical ideas, culture.

АННОТАЦИЯ

В статье объясняется понятие музыкального мышления, чему собственно служит понятие мышления и этапы его совершенствования.

Ключевые слова. Музыкальное мышление, этапы развития, психоэмоциональные, зрелые, теоретические представления, культура.

KIRISH

Musiqi tinglash insonning tafakkurini kengatirishga, psixo-emotsional rivojlanishiga ijobiy va sezilarli ta'sir qiladi. Yaxshi musiqi san'atni tanitadi, ustozlar ta'kidlaganidek estetik didni hamda estetik mahoratni shakllantiradi. Musiqi ham juda keng va boy tarixiy rivojlanishni bosib o'tgan. Ko'pgina mashhur asarlar milliy musiqamizda ham, klassik musiqamizda ham bor. Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy va ma'naviy qadriyatlarining tiklanishida, zamonaviy ,barkamol,yetuk, aqlan sog'lom, keng fikrli insonni shakllantirishda , ma'naviy omillar masalasiga yangicha yondashish, shaxsning ma'naviyati, madaniyati rivojlanishiga o'zgacha munosabatning e'tirof etilishi - jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichga kirganligini bildiradi. Kelajagimiz bo'lgan yoshlarda yuksak odamiylik fazilatlarini shakllantirishda, shuningdek, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda ,musiqiy tafakkurning o'rnini va ro'li muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Yoshlarda milliy , zamonaviy musiqiy tafakkurni shakllantirish, mazkur jarayonni yangilash, uni zamon talablariga munosib tarzda yuksaltirish va yoshlarning badiiy-musiqiy dunyoqarashini kengaytirish bilan bog'liq muammolar - jamiyatimiz ijtimoiy hayotining dolzarb masalalariga aylangan.

“Musiqi – millat ruhining psixologik tili, musiqi- millat his-tuyg'ularining tarjimonidir.Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas,axloqiy, ma'naviy, ruhiy, hattoki, diniy- ilohiy va psixologik tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir”, deb aytadi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining adabiy suhbatlarining birida.¹

¹ Mahmudova. S.A. Musiqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik tizimning ilmiy-nazariy asoslari.O'quv uslubiy qo'llanma. Farg'ona-2023, 6-bet.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Xorijiy , ilmiy tadqiqotlarda, milliy musiqa madaniyatida, musiqiy tafakkur tushunchasini rivojlantirish, uning mohiyati va mazmuniga oid fundamental tadqiqotlar G.Riman, E.Praut, G Katuar tomonida o'rganib chiqilgan. Ular asosan musiqiy tafakkurning mantiqiy-psixologik hamda funksional jihatlarini tahlil etishgan edi. Mustaqil hamdo'stlik davlatlarida esa V.M. Belyayev, V.A.Uспенiskiy, I.V.Sposobin, B.Kabalevskiyalar tomonidan musiqiy tafakkurning asosan falsafiy-pedagogik muammolari tahlil qilingan edi. So'nggi yillarda milliy musiqa madaniyati hamda uning yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirish , kengaytirish imkoniyatlari, aqliy qobiliyatiga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari bo'lganligini alohida e'tirof etish mumkin bo'ladi. Jumladan, ma'lumki yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish masalalarining umumnazariy va metodologik va tarixiy jihatdan yoritishda I.R.Rajabov, Y.Rajabiy, F.Karamatov, O.Matyakubov, S.Mannopov kabi ko'plab musiqashunos olimlarning ilmiy, nazariy g'oyalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu izlanishlarda musiqiy tafakkurda shaxsning ijodiy va tanqidiy dunyoqarashi, fikrlashi, ijtimoiy faolligi masalalariga yetarlicha ahamiyat berish zarurligi asoslangan. Shuningdek, musiqiy tafakkurning rivojlanishini , kengayishini va uning o'ziga xos xususiyatlarini hamda yangilanish tendensiyalarini pedagogika qonuniyatlari bilan bog'lab o'rganishda T.G'ofurbekov, A.Xasanov, I.Qirg'izov, A.Umarov, S.Dadajonovlarning xizmatlari nihoyatda kattadir. Kelajagimiz yoshlarining musiqiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy hamda pedagogik va psixologik asoslarini ilmiy tahliliga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari va maqolalar chop etilgan edi. Yana bir qator shu kabi Q.Ro'zmatzoda, A.Qambarov kabi olimlarning maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini alohida qayd etish mumkin. Aslida musiqaning o'zi insonni , tinglovchini va yaratuvchini tafakkurini rivojlantiradi va kengaytiradi, chuqur o'ylarga yetaklaydi, fikrlashini ham rivojlantiradi. Musiqa murakkab psixologik- fizologik jarayon bo'lganligi sababli musiqa darslarida vokal - xor asarlari, o'quvchilarni axloqiy - estetik tarbiya uchun o'qitishning eng foal shakli hisoblanadi. Musiqani eshitishda, idrok etishda o'quvchilarning diqqat - e'tibori kuchayadi, xotirasi, nutqi rivojlanib, dunyoqarashi ham rivojlanib, shakllanib boradi, faolligi oshib , yoqtirgan musiqalarini tinglaganda zavqlanish hissi paydo bo'la boshlaydi. Milliy madaniyatimiz , milliy musiqamiz rivoji mamalakat uchun ham juda mafaatli va xalq uchun ham foydalidir. Shu munosabat bilan bir qatorda davlatimiz rahbari, prezidentimiz SH.M . Mirziyoyev ham o'zining qaror va farmonlarida musiqaga , madaniyatga va uning rivoji uchun katta e'tibor qaratmoqda. Bu albatta insonlarda musiqiy tafakkur tushunchasini yanada bilishiga va rivoji uchun ham juda ahamiyatlidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori, 28.11.2018 ildagi PQ-4038-soni, Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida edi. Xususan O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi, O'zbekiston san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi. O'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari , o'ziga xos ijro maktablari va an'analarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O'zbek milliy maqom san'ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har 2 yilda 1 marta Xalqaro maqom san'ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san'ati festivalining o'tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirishi bilan bir qatorda, muhim amaliy qadam ham bo'ldi. Musiqiy madaniyat ijtimoiy ong shakillaridan biri hisolanadi hamda inson estetik tafakkurini rivojlantiradi. Jamiyat axloqi-ma'naviy hatti-harakatini tartibga solib turadi. Musiqa madaniyati juda qadimiy davrlardan buyon o'rganilib,

rivojlantirilib kelinmoqda. Tarixiy manbalarning namoyon bo'lishicha, o'zbek musiqa madaniyatining ildizlari juda qadimiy hisoblanadi. Tarixiy adabiyotlardan, ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi IV asrda Iskandar Zulqarnan Markazi Osiyoni zabt etib olganda yunon ahli bizning ajdodlarimiz bo'lmish so'g'diylar, baqtriyaliklar va xorazmiliklarning boy va serqirra musiqa madaniyatidan lol qolganlar. Ularning xonandalari ajdodlarimizning ajoyib kuy-qo'shiqlarini, ijrochilik san'atini va yana ana shu kabi turli xil cholg'u asboblari mahorat bilan o'rganib, o'zlarining musiqa madaniyati rivojlanishida foydalanishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

IX-X asrlarda, Somoniylar hukmronligida Buxoro yuksak san'at va boy ilm-fan maskaniga aylangan edi. Bu davrda olamga mashhur bo'lgan olimlar, shoirlar va musiqachilar yetishib chiqqanlar. Bulardan mashhur allomalarimiz bo'lmish Al-Farobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, A.A.Rudakiy, A. Firdavsiylar O'rta asr Sharq musiqa madaniyatiga o'zlarining katta xissalarini qo'shganlar. Bulardan Al-Farobiy va Ibn Sino Sharq musiqashunosligi ravnaqiga sezilarli xissa qo'shdilar. Tariximizda musiqa rivoji uchun shu va shu kabi allomalarimizning xissalari nihoyatda behisobdir, ana shu bilimlarni o'rganganimizda o'z musiqiy tafakkurimizni yanada rivojlantirib, sermazmun, bo'lishini ta'minlaymiz. Musiqiy tafakkur insonni nafaqat zehni, bilimni va ilmini balki dunyoqarashini ham rivojlantiradi. Musiqiy tafakkur inson aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Aslida tafakkur tushunchasi, tevarak-atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni hamda voqelikni bilish quroli hisoblanadi, shu bilan bir qatorda, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga solishtirilganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayoni hisoblanadi. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa hamda hodisalarni va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga ham aytiladi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq, sezilarliroq hamda to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilishimiz mumkin bo'lmagan narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog'lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Tafakkur -inson miyyasining alohida funksiyasi hisoblanadi. Uning nerv fiziologik asosi ham birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur qilish jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya va faraz kabilar paydo bo'ladi hamda ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida namoyon bo'ladi. Tafakkur- til va nutq bilan chambarchas, uzviy bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Fikrlash faoliyati esa nutq shaklida paydo bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning xissiy mushohada doirasi kengayibgina qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o'zining ongi, tafakkuri, nutqi, fikrlashi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan farqli ravishda ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida mavjud bo'lgan, aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa hamda hodisalarning haqiqiylikni aniqlaydi, buning natijasida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilay oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib va uni bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa hamda hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglaydi. Shu bilan bir qatorda, inson muayyan qonun va qonuniyat hamda qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, kengayishi, rivojlanishi va oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Shunday ekan tafakkur har qanday sohada insonni rivojlantiradi. Musiqiy tafakkur esa insonni ham tartibga soladi, ham tarbiyalaydi. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-1

musiqani asosiy vosita sifatida ta'riflaydi.² Musiqa asarlari mazmun-mohiyatida badiiy g'oyalar umumlashgan holatda berilgan bo'lib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish) jarayonida shakllana boradi. Bu esa musiqiy tafakkurning yanada rivojlanishida, boyishida, kengayishida, ravnaq topishida xizmat qiladi. Musiqiy tafakkurning rivojlanish ilmi asosan uchta uslubiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi: Bular: 1. Musiqa ijodiyoti an'analarini Yunoniston mantiq ilmi negizi bilan bir qatorda umumlashtirishga asoslangan ilmiy-ratsionalistik yo'nalish hisoblanadi. 2. Muayyan bir ijodiy uslub, maktab yoki musiqaning ma'lum bir sohasini amaliy o'zlashtirishga mo'ljallangan amaliy-emperik yo'nalish hisoblanadi. 3. Qur'on, hadislar, shariat arkonlari, allomalarning fikrlari hamda tasavvuf g'oyalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda musiqiy tafakkurni rivojlanishining ma'naviy mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati masalalarini o'rganishga bag'ishlangan diniy-ma'naviy yo'nalish hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlar musiqiy tafakkurini rivojlantirishda oiladagi ijodiy muhit, keng fikrli va bilimga chanqoq yoshlar guruhini tashkillash, innovatsion ta'lim, kitobxonlikning yoshlar musiqiy tafakkurini, ongini rivojlantirishdagi yondashuvni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xalq musiqasi va professional musiqa – yoshlarni tafakkurini oshirishda, axloqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Musiqiy tafakkurni yanada rivojlantirmoqchi bo'lsak, musiqa tarixiga nazar solishimiz kerak. Masalan, 20-yillarda chinakkam o'zbek professional musiqasi hali paydo bo'lmagan edi. Uni yaratish uchun xalqning boy musiqa merosiga va zamonaviy qo'shiq ijodkorligidan foydalanish kerak edi. Shu sababli quyidagi 3 ta yo'nalishda juda katta tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgan: barchaga ma'qul keluvchi konsertlar va dostonlar orqali musiqa san'atining eng yaxshi yutuqlarini ko'rsatish va namoyish etish; o'zbek musiqa merosini tubdan o'rganish; kerakli kadrlar va mutaxassislar tayyorlashni ta'minlash uchun keng miqyosda musiqa ta'limini yo'lga qo'yish kerak bo'lgan. Yuqoridagi shu 3 yo'nalishning haqiqiy tarafdori va fidokorlaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy bo'ldi. Inqilobgacha samarali va foydali faoliyat ko'rsatgan Hamza birinchilardan va ancha keng shuhrat qozongan san'at arboblardan biri sifatida ishladi.

Hamzaning qo'shiq ijodkorligi rivojlanganini va uning o'zbek she'ri hamda musiqiy xalq ijodi bilan bog'liqligini 1915-1919 – yillarda nashr etilgan "Milliy asarlar" nomli qo'shiqlar to'plami to'la tasdiqlaydi. Bu to'plab 8 qismdan iborat bo'lib, ularning yettitasi 1915-1917-illarda chop etilgan va 40 ta qo'shiqni o'z ichiga olgan. Ular o'zbek qo'shiqlaridan hamda uyg'ur, tatar va tojik qo'shiqlarining namunalardan iboratdir. Bundan anglashiladiki, Hamza o'zbek xalq og'zaki ijodi bilan emas, balki yana shu qatorda o'zbeklarga yaqin xalqlarning merosi bilan ham shug'ullangan.³ Bundan ko'rinib turibdiki tariximizda ham juda ko'plab allomalar o'zining noyob asarlari bilan musiqiy tafakkurimizni rivojlantirishimiz uchun yetarilicha namunalar qoldirganlar.

XULOSA

Musiqa madaniyatining yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishdagi tutgan o'rni hamda rolini nazariy jihatdan aniqlash, yoshlarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda milliy musiqa namunalari bilan bir qatorda jahon musiqasining o'rni masalalarini joriy etish; musiqiy durdonalardan unumli foydalanish - yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib tarbiya topishlarida muhim omil sifatida qarashlar va yosh musiqashunos tadqiqotchilar, mumtoz musiqa hamda musiqa estetikasi bilan

² Mahmudova. S.A. Musiqiy madaniyatni shakllantirishda pedagogik tizimning ilmiy-nazariy asoslari. O'quv uslubiy qo'llanma. Farg'ona-2023.

³ Musiqa va tarbiya. Alijon Xasanov. Toshent "O'qituvchi" 1993. 7-bet

shugʻullanuvchi tashkilotlar, ijodiy uyushmalar faoliyatini bosqichma – bosqich rivojlantirishda va musiqa darslarida musiqiy madaniyatni qoʻllab-quvvatlashga yoʻnaltirilgan tashabbuslarni tizimli asosda amalga oshirish ishlarini belgilashda amaliy yordam beradi. Musiqiy tafakkurni rivojlantirish talaba yoshlar va boʻlajak musiqa oʻqituvchilari uchun ijodiy faoliyati, amaliyotida juda foydali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. PF-5847, 8 oktar 2019-yil.
2. Mahmudova. S.A. Musiqiy madaniyatni shakillantirishda pedagogik tizimning ilmiy-nazariy asoslari. Oʻquv uslubiy qoʻllanma. Fargʻona-2023.
3. Musiqa va tarbiya . Alijon Xasanov. Toshent “Oʻqituvchi” 1993.
4. Yoʻldashev F.A , Yoʻldasheva M.B . Musiqi pedagogika va psixologiya Fargʻona – 2024.
5. Murodova .D. Musiqiy ong va tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. Oʻquv qoʻllanma, 2021-yil 13 bet.
6. Xasanov .A .Musiqa va tarbiya. Toshkent. Oʻqituvchi. 1993.
7. Pedagogika . Xasanboyev .J , Toʻraqulov .X.A, Alqarov. I.SH, Usmonov. N.O`. Darslik , Toshkent -2020.
8. Farobiy (Hayoti va ilmiy merosi) .Hayrullaev .M.M. Toshkent. Oʻzbekiston 1991.
9. Intenet sayti: Ziyonet, Wikipediya.